## OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASIGA QABUL QILISH SHARTLARI

Qurolli Kuchlar Akademiyasi Oʻzbekiston fuqarosi boʻlgan, tugallangan oʻrta ma'lumotli 17 yoshga toʻlgan, lekin 23 yoshdan oshmagan, shuningdek muddatli harbiy xizmatni oʻtayotgan yoki oʻtab boʻlgan, 25 yoshgacha boʻlgan oʻgʻil bolalar kirib oʻqish huquqiga egadirlar.

OHTMlariga oʻqishga kirish sinovlari **uch bosqichda** amalga oshiriladi. Ular:

harbiy-professional yoʻnalitirish;

dastlabki saralab olish;

test sinovlari.

Harbiy-professional yoʻnalitirish OHTMlariga oʻqishga kirish istagini bildirgan fuqarolar oʻzlarining yashash joyidagi mudofaa ishlari boʻlimlarga ariza bilan harbiy xizmatchilar oʻz xizmat oʻtash joyiga bildirgi qabul yilining 1 fevraldan 1 aprelga qadar murojaat qilinadi.

Dastlabki saralab olish tadbirlari fuqaro yoshlar uchun - tuman (shahar) mudofaa ishlari boʻlimlarda, harbiy xizmatchilar uchun - oʻz xizmat oʻtash joyida 1 fevraldan 10 aprel kuniga qadar amalga oshiriladi hamda ushbu bosqichda quyidagi tadbirlar tashkil etiladi va oʻtkaziladi:

hujjatlarni toʻplash va oʻrganish;

yakka tartibda suhbatlashish;

birlamchi tibbiy koʻrikdan oʻtkazish.

Mudofaa ishlari boʻyicha boshqarmalarda 11 apreldan 31 may kuniga qadar quyidagi tadbirlar tashkil etiladi va oʻtkaziladi:

individual-psixologik oʻrganish;

umumjismoniy tayyorgarlik koʻrganligini baholash; yakuniy tibbiy koʻrikdan oʻtkazish.

Umumjismoniy tayyorgarlik koʻrganligi quyidagicha baholanadi:

Mashq	O'lchov Baho mezoni				ni
turlari	birligi	a'lo	yahshi	qoniqarli	qoniqarsiz
3000 m yugurish	Daqiqa	13.20	14.20	14.30	14,31 va undan yuqori
100 m yugurish	Soniya	14.4	14.8	15.4	15,5 va undan yuqori
turnikda tortilish	Marotaba	11	9,10	7, 8	1-6



Test sinovlari OHTMda test sinovlari respublika oliy ta'lim muassasalariga o'tkaziladigan test sinovlari bilan bir vaqtda, har yili iyul-avgust oylarida nomzodlar tanlagan hududlarda o'tkaziladi.

## Test bloklari:

**Birinchi blok.** Majburiy fanlar blogida ona tili (oʻzbek, rus yoki qoraqalpoq), matematika, Oʻzbekiston tarixi fanlari boʻyicha har bir fan uchun 10 ta savol, jami 30 ta savoldan iborat. Har bir toʻgʻri javob uchun 1,1 ball beriladi.

Ikkinchi blok. Ta'lim yoʻnalishiga mos fanlar blogida fizika, matematika fanlari boʻyicha har bir fan uchun 30 ta savol, jami 60 ta savoldan iborat. Har bir toʻgʻri javob uchun matematika fanidan 3,1 ball va fizika fanidan 2,1 ball beriladi.

Umumiy holda, nomzodlarga 5 ta fan boʻyicha jami 90 ta test topshirigʻi beriladi.

































Manzil: Toshkent shahar, Mirzo-Ulugʻbek tumani, Parkent koʻchasi, 2 uy. (🗘 + 998 (71) 268-17-20 www.akad.uz

## OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI

Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga yuqori malakali ofitser kadrlarni tayyorlash va yetkazib berish boʻyicha yetakchi oliy harbiy oʻquv dargohi sanaladi. Ta'lim jarayoniga eng yangi usul va texnologiyalar joriy etilib, oʻquv auditoriyalari zamonaviy trenajyorlar, oʻquv laboratoriyalari, kompyuter xonalari bilan jihozlangan.

Qurolli Kuchlar Akademiyasi Umumqoʻshin fakulteti bitiruvchilariga leytenant harbiy unvoni, bakalavr diplomi va haydovchilik guvohnomasi beriladi. Oʻqish muddati 4 vil.

Qurolli Kuchlar Akademiyasi Umumqoʻshin fakultetida quyidagi mutaxassisliklar boʻyicha ofitserlar tayyorlanadi:

motoo'qchi bo'linmalari taktik qo'mondonligi ofitserlari;

chegara boʻlinmalari taktik qoʻmondonligi ofitserlari;

tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar taktik qo'mondonligi ofitserlari;

qoʻshin razvedkasi taktik qoʻmondonligi ofitserlari;

qoʻshinlar front orti ta'minoti taktik qoʻmondonligi ofitserlari;

radiatsion, kimyoviy, biologik himoya qoʻshinlari taktik qoʻmondonligi ofitserlari;

muhandis qoʻshinlari taktik qoʻmondonligi ofitserlari;

Ichki ishlar vazirligi qoʻshinlari taktik qoʻmondonligi ofitserlari;

aniqlovchi va qoʻriqlovchi tizimlardan foydalanish boʻyicha qoʻmondonlik-muhandislik faoliyati;

harbiy psixolog.

Akademiyada kursantlarga yuqori salohiyatga ega boʻlgan fan doktorlari, fan nomzodlari, dotsent va professorlar tomonidan ta'lim berib boriladi.

Akademiyaning asosiy vazifasi harbiy boʻlinmani boshqara oladigan Vatanga sadoqatli komandir, murakkab taktik vaziyatlarda tezkor va nostandart qaror qabul qila oladigan, mustaqillik gʻoyalariga sodiq, intellektual salohiyatli, keng dunyoqarashli va oʻz Vataniga, xalqiga, Prezidentiga sodiq ofitser kadrlarni tayyorlashdan iborat.























